



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

O‘ZBEKISTON XALQARO IMIDJINING YUKSALISHIDA SPORT TURIZMINING TUTGAN O‘RNI

Xashimov Sheraxon Jo‘raxonovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston xalqaro imidjining yuksalishida sport turizmining tutgan o‘rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Sport turizmi mamlakatning ijobiy qiyofasini shakllantirish, uning turistik jozibadorligini oshirish hamda xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini mustahkamlashning muhim omillaridan biri sifatida baholanadi. Maqolada O‘zbekistonda sport infratuzilmasini rivojlantirish, xalqaro sport musobaqalarini tashkil etish va sport tadbirlari orqali xorijiy turistlarni jalb etishning ijtimoiy-iqtisodiy hamda imijiy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sport turizmi, xalqaro imidj, O‘zbekiston brendi, turistik jozibadorlik, sport infratuzilmasi, xalqaro sport musobaqalari, sport tadbirlari, mamlakat nufuzi, turizmni rivojlantirish, madaniyatlararo hamkorlik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, sport diplomatiyasi.

РОЛЬ СПОРТИВНОГО ТУРИЗМА В УЛУЧШЕНИИ МЕЖДУНАРОДНОГО ИМИДЖА УЗБЕКИСТАНА

Хашимов Шерахон Журахонович
Самаркандский институт экономики и сервиса, доцент (PhD)

Аннотация

В данной статье анализируется роль спортивного туризма в повышении международного имиджа Узбекистана с научно-теоретической и практической точек зрения. Спортивный туризм рассматривается как один из важнейших факторов формирования положительного образа страны, повышения её туристической привлекательности и укрепления конкурентоспособности на международной арене. В статье освещается социально-экономическое и имиджевое значение развития спортивной инфраструктуры в Узбекистане, организации международных спортивных соревнований и привлечения иностранных туристов посредством спортивных мероприятий.

Ключевые слова: спортивный туризм, международный имидж, бренд Узбекистана, туристическая привлекательность, спортивная инфраструктура, международные спортивные соревнования, спортивные мероприятия, престиж страны, развитие туризма, межкультурное сотрудничество, социально-экономическое развитие, спортивная дипломатия.

THE ROLE OF SPORTS TOURISM IN IMPROVING THE INTERNATIONAL IMAGE OF UZBEKISTAN

Xashimov Sheraxon Jo‘raxonovich
Samarkand Institute of Economics and Service, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the role of sports tourism in enhancing Uzbekistan's international image. Sports tourism is considered one of the important factors in shaping the country's positive image, increasing its tourism attractiveness, and strengthening its competitiveness in the international arena. The article highlights the socio-economic and image significance of developing sports infrastructure in Uzbekistan, organizing international sports competitions, and attracting foreign tourists through sports events.

Keywords: sports tourism, international image, Uzbekistan brand, tourist attractiveness, sports infrastructure, international sports competitions, sports events, country prestige, tourism development, intercultural cooperation, socio-economic development, sports diplomacy.

Bugungi kunda O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalasiga katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonda aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishini ta‘minlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-apreldagi PF-6199-sonli “Turizm, sport va madaniy meros sohaslarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni e‘lon

qilindi. Ushbu farmonda “turizm turlarini diversifikatsiyalash, eng avvalo, ziyorat turizmi, ekologik turizm, etnoturizm, ishbilarmonlik turizmi, sport, gastronomik, tibbiy, ta’lim va ilmiy turizmni hamda ularning infratuzilmasini rivojlantirish bo’yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish” [1] vazifalari belgilandi. Ma’lumki, aynan sport tufayli ko’plab mamlakatlarning fuqarolari boshqa mamlakatlarga borib sayohat qilishadi, ularning madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlar, an’analari, udumlari, marosimlari, bayramlari, turli taomlari, kiyimlari va hunarmandchilik buyumlari bilan tanishadilar. Sport musobaqalarini tomosha qilib kelgan turistlar boshqa mamlakatlar haqida o’z davlati fuqarolariga ma’lumot beradilar. Bu esa mamlakatga keladigan turistlar sonining ko’payishiga olib keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review) port turizmi va uning mamlakatlar xalqaro imidjini shakllantirishdagi o’rni so’nggi yillarda turizm, sport menejmenti va xalqaro munosabatlar yo’nalishlarida faol tadqiq etilayotgan ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida sport turizmining iqtisodiy, ijtimoiy va imijiy ahamiyati keng yoritilgan. Xususan, sport turizmi nazariyasining shakllanishida Heather J. Gibson, Standeven va De Knop hamda Weed va Bull kabi tadqiqotchi olimlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada turkiyalik A. Çetin, S. Duman, H. M. Şahin, E. A. Uluç, Ç. Bulut, O. Yıldırım, Ö. Balcı kabi professor-tadqiqotchilarning akademik ishlari diqqatga sazovordir. Mamlakatimizda esa sport turizmi yangi ilmiy tadqiqot sohasi sifatida endigina rivojlanib bormoqda. Bu jarayonda A. T. Nazarov, A. G’ofurov, I. S. Tuxliyev, A. T. Mirzayev kabi tadqiqotchi olimlarning ilmiy izlanishlarini keltirib o’tish joiz.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya, mantiqiy tahlil, qiyosiy-tarixiy tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Bugungi kunda O’zbekistonda turizm obyektlarini samarali boshqarish, turizm sohasiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, mamlakatning turizm salohiyatini tubdan oshirish, turizm xizmatlarining tashqi va ichki bozorlarida marketing tadqiqotlari olib borish, tarixiy-madaniy merosni keng targ’ib qilish, mamlakatimizning turistik qiyofasini saqlab qolish va rivojlantirish, milliy turizm mahsulotlari hamda brendlarning xalqaro turizm bozorlariga kirib borishiga yo’naltirilgan faol reklama-axborot siyosatini amalga oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

“Jamiyatda sog’lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish dolzarb vazifalarimiz qatoriga kiradi, — deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev. — Sportni jadal rivojlantirish, xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishgan sportchilarni rag’batlantirish va qo’llab-quvvatlashga bundan buyon ham katta ahamiyat berishimiz lozim” [2;219].

Sport turizmi — bu insonning jismoniy tayyorgarligi, funksional imkoniyatlari va sport mahoratini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat turi bo’lib, u tabiiy geografik muhit sharoitida turli murakkablikdagi tabiiy to’siqlarni bosib o’tish jarayonini o’z ichiga oladi. Mazkur faoliyat sport va turizm elementlarining uyg’unlashuvi asosida shakllanib, ishtirokchilardan yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlik, texnik ko’nikmalar hamda strategik-taktik yondashuvlarni talab etadi. Tadqiqotchi olim A.T. Nazarov ta’kidlaganidek, “Sport turizmi odatdagi turistik muhitdan farqlangan holda sport tadbirlarini tomosha qilish yoki ularda ishtirok etishni o’z ichiga olgan sayohatni anglatadi. Sport turizmi jahon sayyohlik sanoatining eng tez rivojlanayotgan sektori bo’lib, uning qiymati 7,68 milliard dollarni tashkil etadi” [3;89].

O’zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-oktyabrda qabul qilingan “Turizm to’g’risida”gi O’RQ-549-sonli Qonunining 5-moddasida: “Turizm tashkil etilayotgan turning o’ziga xosligi, mavzusi, davomiyligi, harakatlanish usullari va turning boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda madaniy-tarixiy, ziyorat, ekologik, ma’rifiy, etnografik, gastronomik, ishbilarmonlik, ijtimoiy, sport, tibbiy, yoshlar turizmi, agroturizm hamda turizmning boshqa turlariga bo’linishi mumkin”, deb belgilangan [4].

Ushbu qonundan kelib chiqib e’tibor qaratsak, sport turizmi, birinchi navbatda, turli mamlakatlarga amalga oshiriladigan safarlarni qamrab oluvchi jamoaviy sport turi bo’lib, unda o’zaro yordam, sport intizomi, o’z-o’zini takomillashtirish, bilim va tajribalarni o’zaro almashish hamda uzatish an’analari mavjudligi bilan xarakterlanadi. Unda diqqatga sazovor jihat sayyohlarga sport bilan bog’liq yo’nalishlarni taqdim etishdan iboratdir. Bunday obyektlar tabiiy (istirohat bog’lari, tog’lar, yovvoyi tabiat) yoki sun’iy (muzeylar, stadionlar, savdo do’konlari) bo’lishi mumkin [3;90].

Sport turizmi bugungi kunda jahon turizm industriyasining jadal rivojlanayotgan yo’nalishlaridan biri bo’lib, mamlakatlarning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish, investitsiyaviy va turistik jozibadorligini kuchaytirishda muhim omil sifatida e’tirof etilmoqda. Zamonaviy globallashtirish sharoitida yirik sport musobaqalari, xalqaro turnirlar va sport tadbirlarini tashkil etish davlatlarning ijobiy imidjini

shakllantirish, ularning madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini dunyo hamjamiyatiga namoyish etishning samarali vositasiga aylanmoqda.

O‘zbekiston ham so‘nggi yillarda sport va turizm sohalarini uyg‘un rivojlantirish orqali xalqaro imidjini mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratmoqda. Mamlakatda sport infratuzilmasining modernizatsiya qilinishi, xalqaro standartlarga mos sport majmualarining barpo etilishi hamda nufuzli sport musobaqalarining muntazam o‘tkazilishi xorijiy turistlar oqimining ortishiga xizmat qilmoqda. Xususan, kurash, dzyudo, boks, futbol, velosport va boshqa sport turlari bo‘yicha xalqaro musobaqalarning tashkil etilishi O‘zbekistonning sport salohiyatini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish imkonini bermoqda.

Jumladan, 2020-yil 4-noyabrda qabul qilingan “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori qadimiy qadriyatlarimiz, xususan, mardlik, jasurlik, vatanparvarlik va gumanizm g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan milliy sportimiz — kurashni ommalashtirish, rivojlantirish va dunyoga tanitish hamda ushbu qadriyatimizni umuminsoniy meros darajasiga ko‘tarish bo‘yicha mutlaqo yangi davrni boshlab berdi. Qarorda belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida “o‘tgan yillarda mahalliy va xalqaro miqyosda 3000 dan ortiq musobaqalar o‘tkazildi. Germaniya, Bolgariya, Turkiya, Litva, Ruminiya, Fransiya va AQSHda O‘zbekiston Prezidenti sovrini uchun xalqaro turnirlar tashkil etildi. Hindistonda kurash bo‘yicha jahon chempionati o‘tkazildi” [5].

Bu kabi hodisalar mamlakatimizda sport turizmining rivojlanishi o‘z navbatida O‘zbekistonning xalqaro reytinglar va indeksdagi o‘rniga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatayotganini namoyon etadi. Yirik sport tadbirlarining muvaffaqiyatli tashkil etilishi mamlakatimizning tashkiliy salohiyati, xavfsizlik tizimi va xizmat ko‘rsatish sifati haqida ijobiy tasavvur hosil qiladi. Natijada Yangi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘-e‘tibori ortib, yangi investitsiyalar va turistik oqimlarni jalb etish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Xulosa (Conclusion)

Xulosa qilib aytganda, sport turizmi O‘zbekistonning xalqaro imidjini yuksaltirishda muhim strategik omillardan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishni izchil rivojlantirish mamlakatning global miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirish, turistik salohiyatini kengaytirish hamda ijobiy xalqaro qiyofasini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kelgusida mamlakatimizda bugungi kunda turistlarni jalb qilib kelayotgan yangi sport turizmi turlarini, ya‘ni ekstremal turizm yo‘nalishlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, ekstremal chang‘i sporti, snoubord, mototsikl poygalari (*motorcycle racing*), ralli (*rallying*), motokross, skeytbording, tog‘ velosipedi, suv turizmi yo‘nalishidagi rafting, havo turizmidagi paraplanerizm hamda tog‘ turizmi yo‘nalishidagi tog‘ chang‘i sporti, alpinizm va speleoturizm kabi turlarni rivojlantirish zarur.

Bunday sport turizmi turlarini rivojlantirish Yangi O‘zbekiston uchun bir tomondan mamlakatimizga keladigan turistlar sonining ko‘payishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan fuqarolarimiz salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli sport turizmini qo‘llab-quvvatlash va uning infratuzilmasini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.04.2021 yildagi “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6199-son // <https://lex.uz/docs/5356705>
2. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 219.
3. Sport turizmi tavsifi va undan bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda foydalanish // FarDU. Ilmiy xabarlar. – Farg‘ona, 2024. – Volume 30. Issue 4. – B. 88–91.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi O‘RQ-549-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/-4428097>
5. Tillyaxodjayev A. Sport va turizm – barqaror taraqqiyot omili // <https://www.jtsu.uz/uz/e/blog/1147-sport-va-turizm-barqaror-taraqqiyot-omili>
6. Теория и методика спортивного туризма: учебник / под ред. В. А. Таймазова и Ю. Н. Федотова. – М.: Советский спорт, 2014. – 424 с.